

ПОЛИТИКА ОБРАБОТКИ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SIYOSATI

Сайт: <https://daksdrive.uz> | ООО «DAKS-DRIVE» (ИНН 311529513) | Дата вступления в силу: «03» марта 2026 г.

Sayt: <https://daksdrive.uz> | «DAKS-DRIVE» MChJ (STIR 311529513) | Kuchga kirish sanasi: «03» марта 2026 г.

1. Общие положения / Umumiy qoidalar

RU: Настоящая Политика определяет порядок обработки и защиты персональных данных пользователей Сайта <https://daksdrive.uz>. Оператор персональных данных: ООО «DAKS-DRIVE» (ИНН 311529513), адрес: Республика Узбекистан, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, дом 6, индекс 100124.

UZ: Ushbu Siyosat <https://daksdrive.uz> sayti foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va himoya qilish tartibini belgilaydi. Shaxsiy ma'lumotlar operatori: «DAKS-DRIVE» MChJ (STIR 311529513), manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 6-uy, 100124.

RU: Сайт является сайтом-визиткой. Компания собирает персональные данные только в объеме, необходимом для обработки заявок и обратной связи.

UZ: Sayt vizitka sayti hisoblanadi. Kompaniya shaxsiy ma'lumotlarni faqat arizalarni ko'rib chiqish va qayta aloqa uchun zarur bo'lgan hajmda yig'adi.

2. Какие данные мы обрабатываем / Qaysi ma'lumotlarni qayta ishlaymiz

RU: Компания может обрабатывать: ФИО, номер телефона, e-mail, сведения о заявке (интересующий сервис: доставка/перевозки/такси), переписку в мессенджерах, а также технические данные (IP-адрес, cookies, параметры устройства, реферер, UTM-метки и иные параметры веб-аналитики).

UZ: Kompaniya quyidagilarni qayta ishlashi mumkin: F.I.Sh., telefon raqami, e-mail, ariza bo'yicha ma'lumotlar (qiziqtirgan servis: yetkazib berish/tashish/taksi), messenger yozishmalari, shuningdek texnik ma'lumotlar (IP-manzil, cookie, qurilma parametrlari, referer, UTM-belgilar va boshqa veb-analitika parametrlari).

3. Цели обработки / Qayta ishlash maqsadlari

RU: Цели обработки: (а) прием и обработка заявок; (б) связь с заявителем (звонок, e-mail, сообщения в мессенджерах); (в) ведение учета заявок и коммуникаций в CRM-с и с т е м е ; (г) улучшение качества обслуживания и работы Сайта; (д) статистика и маркетинг (при наличии правовых оснований).

UZ: Maqsadlar: (a) arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish; (b) ariza yuborgan shaxs bilan bog'lanish (qo'ng'iroq, e-mail, messenjer xabarlar); (v) arizalar va muloqotni CRM tizimida yuritish; (g) servis va Sayt sifatini yaxshilash; (d) statistika va marketing (huquqiy asos bo'lsa).

4. Правовые основания / Huquqiy asoslar

RU: Основания обработки: согласие субъекта персональных данных (в том числе выраженное путем отправки заявки/сообщения); необходимость выполнения действий по запросу субъекта данных перед заключением договора; выполнение требований законодательства; законные интересы Компании при условии соблюдения прав субъекта данных.

UZ: Qayta ishlash asoslari: shaxsiy ma'lumotlar egasining roziligi (jumladan ariza/xabar yuborish orqali bildirilgan); shartnoma tuzilishidan oldin ma'lumot egasining so'roviga binoan harakatlarni amalga oshirish zarurati; qonunchilik talablarini bajarish; ma'lumot egasining huquqlari buzilmagan holda Kompaniyaning qonuniy manfaatlar.

5. Где и как мы обрабатываем данные / Ma'lumotlar qayerda va qanday qayta ishlanadi

RU: Данные могут обрабатываться: (а) на Сайте и на серверах хостинга; (б) в корпоративной почте; (в) в мессенджерах (например, Telegram/WhatsApp и др.), через которые Пользователь обращается; (г) в CRM-с и с т е м е Компании (включая amoCRM) для учета заявок и коммуникаций.

UZ: Ma'lumotlar quyidagilarda qayta ishlanishi mumkin: (a) Saytda va xosting serverlarida; (b) korporativ pochta; (v) Foydalanuvchi murojaat qilgan messenjerlarda (masalan, Telegram/WhatsApp va boshqalar); (g) Kompaniyaning CRM tizimida (jumladan amoCRM) arizalar va muloqotni yuritish uchun.

6. Передача третьим лицам / Uchinchi shaxslarga berish

RU: Компания может передавать данные подрядчикам, которые обеспечивают работу Сайта и учет заявок (хостинг-п р о в а й д е р ы , CRM-п о с т а в щ и к и , сервисы связи), только в объеме, необходимом для целей обработки, и при условии соблюдения конфиденциальности.

UZ: Kompaniya Sayt ishlashi va arizalarni hisobga olishni ta'minlovchi pudratchilarga (xosting provayderlari, CRM yetkazib beruvchilar, aloqa servislar) ma'lumotlarni faqat zarur hajmda va maxfiylik shartlariga rioya qilingan holda berishi mumkin.

RU: Использование зарубежных сервисов (например, мессенджеров или облачных CRM) может предполагать трансграничную передачу данных. Такая передача осуществляется при наличии правовых оснований и с учетом требований законодательства.

UZ: Chet el servislaridan (masalan, messenjerlar yoki bulutli CRM) foydalanish transchegaraviy uzatishni nazarda tutishi mumkin. Bunday uzatish huquqiy asoslar mavjud bo'lsa va qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Сроки хранения / Saqlash muddati

RU: Персональные данные хранятся не дольше, чем это необходимо для целей обработки и/или в сроки, установленные законодательством. После достижения целей данные удаляются или обезличиваются, если иное не требуется законом.

UZ: Shaxsiy ma'lumotlar qayta ishlash maqsadlari uchun zarur bo'lgan muddatdan ortiq saqlanmaydi va/yoki qonunchilik belgilagan muddatlarda saqlanadi. Maqsadlarga erishilgach, qonun boshqacha talab qilmasa, ma'lumotlar o'chiriladi yoki shaxssizlantiriladi.

8. Права субъекта данных / Ma'lumot egasining huquqlari

RU: Пользователь вправе запросить сведения об обработке данных, потребовать уточнения/удаления, ограничить обработку, отозвать согласие (если обработка основана на согласии). Запрос направляется по e-mail Компании.

UZ: Foydalanuvchi ma'lumotlar qayta ishlanishi haqida ma'lumot so'rash, aniqlashtirish/o'chirishni talab qilish, qayta ishlashni cheklash, rozilikni qaytarib olish (agar qayta ishlash rozilikka asoslangan bo'lsa) huquqiga ega. So'rov Kompaniyaning e-mail manziliga yuboriladi.

9. Cookies и аналитика / Cookie va analitika

RU: Сайт может использовать cookies и UTM-м е т к и для корректной работы, аналитики и оценки эффективности рекламы. Пользователь может ограничить cookies в настройках браузера, что может повлиять на работу отдельных функций Сайта.

UZ: Sayt to'g'ri ishlashi, analitika va reklama samaradorligini baholash uchun cookie va UTM-belgilardan foydalanishi mumkin. Foydalanuvchi brauzer sozlamalarida cookie'ni cheklashi mumkin, bu esa Saytning ayrim funksiyalari ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

10. Контакты / Aloqa

RU: E-mail: daksdrive.uz@yandex.ru. Адрес: Республика Узбекистан, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, дом 6, индекс 100124.. Ответственное лицо: Niyazov Batur Azat o'g'li.

UZ: E-mail: daksdrive.uz@yandex.ru. Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 6-uy, 100124.. Mas'ul shaxs: Niyazov Batur Azat o'g'li.